Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

TIBBIY TERMINLAR TARJIMASI: DOLZARB MUAMMOLAR

Charos Raxmidinovna Choriyeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti 2401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Muslima Maxmudovna Bazarova**
O‘zDJTU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21808808

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz tilidan o‘zbek tiliga tibbiy terminlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon duch keladigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qiladi. Tibbiy tarjima yuqori aniqlik va mas’uliyatni talab qiluvchi soha bo‘lib, terminologik xatolar klinik noto‘g‘ri talqinlarga sabab bo‘lishi mumkin. Maqolada tibbiy terminlarning lingvistik xususiyatlari, ularning lotin va yunon tillaridan kelib chiqishi, shuningdek, terminologik ekvivalent yetishmasligi, so‘zma-so‘z tarjima xavfi, qisqartmalar va ilmiy hamda klinik uslub o‘rtasidagi farqlar ko‘rib chiqiladi. Ingliz-o‘zbek tibbiy tarjimasida uchraydigan tipik xatolar terminlar orqali misol keltiriladi. Shuningdek, samarali tarjima strategiyalari va tibbiy tarjimon uchun zarur kompetensiyalar yoritiladi.

Kalit so’zlar: tibbiy terminologiya, terminologik ekvivalent, klinik kontekst, tibbiy qisqartmalar, tarjima strategiyalari, terminologik izchillik, professional kompetensiya.

Dolzarbligi: Zamonaviy tibbiyot fanining jadal rivojlanishi xalqaro ilmiy aloqalarning kengayishiga olib keldi. Bugungi kunda tibbiyot sohasidagi ilmiy maqolalar, klinik protokollar, dori yo‘riqnomalari va tadqiqot natijalarining aksariyati ingliz tilida yaratilmoqda. Shu sababli ingliz tilidan boshqa tillarga, xususan o‘zbek tiliga tibbiy tarjima qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiy tarjima oddiy lingvistik jarayon bo‘lib qolmay, balki inson salomatligi va hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mas’uliyatli faoliyat hisoblanadi. Terminlarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi klinik xatolarga, noto‘g‘ri tashxis yoki davolash usullarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Metodlar: Maqola umum qabul qilingan metodlar – ob’ektivlik, ilmiylik, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Muhokama va natijalar: Tarjima yo‘nalishidagi eng muhim va murakkab sohalardan biri tibbiy tarjima hisoblanadi. Shu sababli, bu sohani chuqur va ehtiyotlik bilan o‘rganish talab etiladi.

Tibbiy terminlarning lingvistik xususiyatlari. Tibbiyot sohasidagi terminlarning katta qismi lotin va yunon tillariga asoslangan bo‘lib, ular ingliz tili orqali xalqaro miqyosda standart termin sifatida qo‘llanadi. Bu terminlar nafaqat ilmiy maqolalarda, balki klinik protokollar, dori yo‘riqnomalari va tibbiy hujjatlarda ham keng qo‘llaniladi. Masalan:

- *cardiology* – kardiologiya (yurak kasalliklarini o‘rganish fani);
- *neurology* – nevrologiya (asab tizimi kasalliklarini o‘rganish fani);
- *hypertension* – arterial gipertenziya (qon bosimining uzluksiz ko‘tarilishi).

Ingliz tibbiy terminlari ko‘pincha prefiks, suffiks va ildizlardan tashkil topadi. Masalan, “*endocarditis”* termini quyidagi qismlardan iborat: *endo-* (ichki), *card-* (yurak), *-itis* (yallig‘lanish). Shu sababli, o‘zbek tilida bu terminni faqat so‘zma-so‘z emas, balki izohli tarzda tarjima qilish talab etiladi: *endokardit – yurak ichki qavatining yallig‘lanishi*.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tibbiy terminlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon bir qator lingvistik, klinik va kontekstual qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar tarjimaning aniqligi va bemor xavfsizligi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Misol uchun:

Terminologik ekvivalentning yo‘qligi. Ko‘plab ingliz tibbiy terminlarning o‘zbek tilida to‘liq muqobili mavjud emas. Masalan, “*screening”* so‘zi klinik matnlarda erta aniqlash tekshiruvi sifatida izohli tarjima qilinadi, chunki so‘zma-so‘z “skrining” bemorlar uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuningdek, “*compliance”* termini bemorning davolanishga rioya qilishi ma’nosini bildiradi va o‘zbek tilida bevosita ekvivalenti yo‘q. Shu sababli tarjimon izohli yoki tushuntiruvchi yondashuvdan foydalanadi, bu esa tarjimani murakkablashtiradi.

So‘zma-so‘z tarjima xavfi. Tibbiy terminlarni bevosita tarjima qilish noto‘g‘ri talqinlarga olib keladi. Masalan:

- *heart failure* – yurak muvaffaqiyatsizligi (yurak yetishmovchiligi);
- *drug abuse* – dori suiiste’moli (giyohvandlik yoki dori vositalarini noto‘g‘ri ishlatish).

Bu holatlar tarjimaga mazmuniy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Tarjimon kontekstni hisobga olib, bemor va mutaxassis uchun tushunarli ifodani tanlashi kerak.

Sinonim va variantlarning ko‘pligi. Bir termin uchun o‘zbek tilida bir nechta variant mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan: *tumor* – o‘sma yoki shish.

Tarjimon matn davomida tanlangan variantni izchil ishlatishi, terminologik izchillikni saqlashi zarur. Bu ayniqsa ilmiy maqolalar va klinik hisobotlarda muhimdir.

Qisqartmalar va abbreviaturalarning tarjimasi. Tibbiy matnlarda qisqartmalar keng tarqalgan, ixtisoslashgan ilmiy iboralar va birikmalar orqali ishlatiladi, bu esa tarjimon uchun qo‘shimcha murakkabliklar yaratadi Ularni noto‘g‘ri tarjima qilish matnning tushunarliligini pasaytiradi. Masalan:

- *BP* (blood pressure) – arterial bosim;
- *MRI* (magnetic resonance imaging) – magnit-rezonans tomografiya (MRT);
- *ICU* (intensive care unit) – reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi.

Tarjimon qisqartmaning to‘liq ma’nosini ochib berishi va kontekstga mos tarjima qilishi kerak.

Klinik va ilmiy uslub farqi. Ilmiy va klinik matnlar turli auditoriya uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Ilmiy maqolalarda terminlar ko‘pincha xalqaro shaklda beriladi, klinik hujjatlarda esa bemor uchun tushunarli va sodda ifodalar talab etiladi. Masalan, “*myocardial infarction”* termini ilmiy uslubda “miokard infarkti” deb tarjima qilinsa, bemor uchun sodda izoh bilan – “yurak mushagining o‘tkir zararlanishi” tarzida tushuntiriladi. Shu tarzda, tarjimon auditoriya va kontekstni hisobga olgan holda aniq va tushunarli tarjimani taqdim etishi zarur.

Kontekstga bog‘liqlik va ko‘p ma’nolilik. Ba’zi tibbiy terminlar kontekstga qarab turli ma’nolarni bildirishi mumkin. Masalan, *shock* so‘zi klinik matnda hayotiy tizimlarning keskin buzilishi, farmakologik kontekstda esa ba’zi dori vositalariga javob sifatida ishlatiladi. Shu sababli tarjimon kontekstni to‘liq tushunib, mos tarjimani tanlashi kerak. Shuningdek, tibbiy terminlar kontekstga bog‘liq holda turli ma’nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, “*shock”* termini klinik matnda shok – hayotiy tizimlarning keskin buzilishi, laboratoriya yoki farmakologik kontekstdagi matnda esa turli tibbiy holatlarni bildirishi mumkin. Shu sababli tarjimon terminning lingvistik va klinik kontekstini hisobga olgan holda aniq tarjima qilishi zarur.

Tarjimonning malaka va tajribasi. Tibbiy terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon tibbiyot sohasidagi asosiy bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Lingvistik malaka bilan birga tibbiy tushunchalarni tushunish, klinik kontekstni baholash va izohli yondashuvni qo‘llash muhimdir. Quyida tarjimonlar foydalana oladigan ba’zi foydali strategiyalar keltiriladi:

- transliteratsiya. Xalqaro tan olingan tibbiy terminlarni asl shaklida saqlash orqali ularning aniqligi va umumjahon tushunarliligini ta’minlash mumkin. Masalan: *diabetes* – diabet, *oncology* – onkologiya. Transliteratsiya bemor va mutaxassislar uchun ham standart tushuncha yaratadi;

- izohli tarjima. Terminologik ekvivalent mavjud bo‘lmagan hollarda izohli tarjima qo‘llanadi. Bu strategiya bemor va mutaxassis uchun mazmunni aniq etkazishga yordam beradi. Masalan: *stroke* – miya qon aylanishining o‘tkir buzilishi, *endocarditis* – yurak ichki qavatining yallig‘lanishi.

- kalkalash (so‘zma-so‘z tarjima bilan kontekstga moslash). Kalkalash strategiyasi prefiks, suffiks va ildizlarni to‘g‘ri aniqlab, ularni o‘zbek tiliga mos tarzda tarjima qilishni talab qiladi. Masalan: *blood circulation* – qon aylanishi, *gastroenterology* – oshqozon-ichak kasalliklarini o‘rganish fani.

Bu yondashuv terminning ilmiy va klinik mazmunini saqlashga xizmat qiladi.

Kontekstga moslashtirilgan yondashuv. Tarjimon matn auditoriyasini va kontekstni hisobga olib terminlarni tanlashi kerak. Ilmiy maqolada xalqaro shakl saqlanadi, klinik hujjatda esa bemor tushunadigan sodda ifoda ishlatiladi.

Lug‘at va terminologik bazalardan foydalanish. Rasmiy tibbiy lug‘atlar, ingliz-ingliz tibbiy izohli lug‘atlar va CAT vositalari tarjimaga izchillik va aniqlik kiritadi. Bu strategiya tarjimonga terminlarni standartlashtirish va matnni yaxshiroq moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy terminlarning lingvistik xususiyatlari ularning tarixi, tuzilishi, kontekstga bog‘liqligi va qisqartmalar bilan ishlash qoidalarini o‘z ichiga oladi va tarjimonning malakasi va tajribasini sinovdan o‘tkazadi. Bu kabi murakkab terminlar va ularning xususiyatlari tarjimonlar uchun bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tibbiy tarjima nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki klinik bilim va kontekstni chuqur tushunishni talab qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, terminologik ekvivalent yetishmasligi, qisqartmalar va kontekstga bog‘liqlik tarjimon uchun asosiy e’tibor talab qiladigan jihatlardir. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun transliteratsiya, izohli tarjima, kalkalash, qisqartmalarni to‘liq ochib berish, kontekstga moslashtirilgan yondashuv, lug‘at va terminologik bazalardan foydalanish kabi strategiyalar samarali hisoblanadi. Shuningdek, tarjimonning professional malakasi va doimiy bilim yangilash tibbiy tarjimaning aniqligi va izchilligini ta’minlaydi. Shu tarzda, maqola tibbiy tarjima sifatini oshirish, izchil va tushunarli matn yaratish hamda tibbiy kommunikatsiyada xatolarni kamaytirish uchun amaliy yo‘riq sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. Prentice Hall, 1988.
2. González, M. *Medical Translation Step by Step*. Routledge, 2012.
3. https://www.who.int
4. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov
5. Dorland’s Illustrated Medical Dictionary